E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

TASAVVUF TA'LIMOTIDA NAFS TARBIYASI

Shermataliyev Omonillo Muxtorali o'g'li

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Manbashunoslik va tasavvuf germenevtikasi kafedrasi

1-bosqich magistranti

+998945040895

Annotatsiya. Ushbu maqolada tasavvuf tariqatida nafs tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilganligi va uning turli darajalanishlari ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, nafs va uning turli xil ko'rinishlari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Tasavvuf, nafsi ammora, nafsi lavvoma, nafsi mutmaina, nafs, Qur'oni karim, shayton, fano, oshiq.

Tasavvuf-islomda insonni ruhiy va axloqiy jihatdan komillik sari yo'llovchi ta'limot. Tasavvuf so'zining o'zagi va mazmuni haqida olimlar turli fikr va taxminlar bildiradi. Ular ichida Ibn Xaldunning fikri haqiqatga yaqin deb e'tirof etiladi.U "Muqaddima"asarida tasavvuf "suvf", "jun, po'stin" so'zidan olingan bo'lishi kerak, zero jundan to'qilgan kiyim yoki po'stin kiyib yurishni odat qilganlar"[1].Najmiddin Komilov "Tasavvuf" kitobida ham shunday fikrlar keltirib o'tiladi. "Yana bir guruh olimlar "sufuf" so'zidan yasalgan deydi va sufuf -biror bir narsaning xulosasidir"- degan fikrlarni keltirib o'tadi.Tasavvuf turlicha talqin qilingan,masalan, Ma'ruf al Karxiy fikricha "Tasavvuf-haqiqat sari intilish,odamlardan ta'magirchilik qilmaslik va faqirlikni ixtiyor etishdir[2]" desa, Junayd al Bog'dodiy "Tasavvuf qalbni sof tutmoq,tug'ma zaiflik va nafsoniy tuyg'ular ustidan g'alaba qilmoq" deb ta'rif beradi.Misrlik olim Ibrohim Basyumiy "Islomda tasavvufning paydo bo'lishi" kitobida hijriy 3 va 4 asrlarda yashagan olimlarning 40 ta ta'rifini keltiradi. Islomga ko'ra yomonlik, gunoh amallarning yana bir manbasi insonning o'zi, ya'ni nafsidir. "Men nafsimni oqlamayman, chunki nafs agar parvardigorimning o'zi rahm qilmasa, albatta, barcha yomonliklarga buyurguvchidir.(Yusuf -53) Bu Yusuf alayhissalomning tili bilan Qur'oni Karimda bayon etilgan.

Tasavvuf va diniy ta'limotga ko'ra, har narsani bilguvchi, bildirguvchi, yo'lga soluvchi, yo'ldan ozdirguvchi ham, foydaga ham, zararga ham yetishtirguvchi, beruvchi va oluvchi ham Ollohdir. Inson bu dunyoda ko'ngilni Ollohga bag'ishlab to'g'ri yo'ldan yursa kifoya. Komillik amallariniga roya qilsa, komillik amallariga yo'l ochguvchi ham Ollohning o'zidir. Ammo bu amallarni bajarish insondan bo'lgani bois ham qaysi yo'ldan yurmoqlik uning ixtiyoridadir. Har bir yomon amalning boshida nafs turadi. Mumtoz adabiyotda nafs mavzusi inson bilan bog'liq muhim hayotiylik bo'lgani sababli ham buyuk ijodkorlar, so'fiylar asarlarida, tasavvuf g'oyalarida buy o'ldan insonni qaytarishga harakat qilinadi. Barcha yaratilgan narsalarning eng yomoni nafsdir. Najmiddin Kubroning "Ko'nglim ko'zi bilan ko'rganlarim" asarida shunday deyiladi:

"Dunyo va uning bezaklari, havas va shayton, hamda ularga bog'liq bo'lgan narsalardan uning ko'p yordamchilari bo'lib, har bir yordamchisining dunyoviy hayotni bezatuvchi narsalardan lashkarlari va xizmatchilari bor. Misol suratda ko'p yemoq, ko'p uxlamoq, ko'p kulmoq, oshiqlik qissalarini tinglamoq, dunyoni sevmoq, boylikni tanlamoq, takabburlik, hasad, g'iybat, yomonlik bilan shug'ullanmoq, ichimliklar ichib gunohga qo'l urish, turli o'yinlarga berilib, foydasiz ishlarga urinish, mol-mulk yig'ib istaklar va orzular ipini cho'zish, yomonlikka

[1] "Nafs nimadir" Muhammad Zohid Qutqu."Sharq Nashriyoti matbaa".Toshkent 2020.
[2] AbuRayxonBeruniy"Ruhiyatva tarbiyahaqida".-T:1992.-345.B

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

buyurib, yaxshiliqdan voz kechtirish, istak-havas va surur (xursandchilik), imorat va tijorat (uy-joy qurish va savdo)ga ko‘ngil bog‘lab yomonni yaxshilash; boshqalar sir-asrorlarini fosh etish, chegaradan (axloq va odob chegarasidan) chiqish, botildan yordam so‘rab haqni inkor etish, dunyoparastlarga hurmat bildirib, oxirat ahdini haqorat qilish, shular jumlasidandir”.

Inson o‘z nafsini butun umr tarbiya qilishi lozim. Alisher Navoiy asarlarida ham bu g‘oya asosiy o‘rinda turadi.

Shayton vasvasasi bilan nafs vasvasasi orasidagi farqni mutasavvuflar shunday farqlaydilar.Shayton o‘yindan o‘yinga o‘taveradi,nafs esa bir narsani qaysarlik bilan talab qilib turaveradi.Shayton mohir yolg‘onchi va hiylakor bo’lgani bois ,insonni olloh roziligidan chalg‘itish maqsadida bir gunohga undolmasa,boshqa bir gunohni taklif qiladi, bir o‘yinda insonni laqillatmasa, ikkinchi bir o‘yinni tatbiq etadi. Ammo nafs qaysar yosh boladek yopishib olgan narsasini xoxlab turaveradi. Inson nafsi aslida keraksiz narsa emas ham. Islomda nafsning ba’zi istaklar tabiiy sanaladi.Ushbu istaklar halol yo‘llar orqali qoniqtirilishi dinimizning amridir. Yemoq, aql jihatdan halol tabiiydir. Uyqu, insondagi kuch-quvvat to‘plash manbayi bo‘lib,navbatdagi kunni tetik o‘tkaza olishi uchun uyqu talab qilinadi. Oila qurish,nasl-nasabning davom etishi,insonning huzur halovatda turmush kechirishi uchun tavsiya etiladi. Nafsning shunday orzu istaklar borki,ular g‘ayri tabiiydir. Ularga qarshi kurashish, islomning asosiy talabidandir. Chunki, bu xoxish-istaklar insonning tuyg‘ularini zararli jihatlarga yo‘naltiradi. Tasavvuf tariqatida nafs tarbiyasiga alohida ahamiyat qaratilgan va uning turli darajalari belgilangan. Bular “Nafsi ammora”, “Nafsi lavvoma”, “Nafsi mutmaina”lardir. Nafsi ammora-insonni tamomila o‘z jiloviga olgan,har qanday og‘ir gunohlarga boshlovchi,tarbiyaga bo‘ysunmagan,o‘jar nafs. Quroni Karimdagi “Yusuf”surasi bunga misol bo‘la oladiю

“Nafsi lavvoma” – gunoh ishlarga yo‘l qo‘yganda qiynala boshlagan, o‘z xatolaridan afsuslanish hissi paydo bo‘lgan inson nafsining holati.Quroni Karimning "Qiyomat" surasi eslanadi.[3] Nafsi mutmaina – sokin muvozanatga erishgan,xotirjam gunohlardan tiyilgan nafs. Quroni Karimning "Al-fajr"surasida eslanadi.

“Nafsi lavvoma” – gunoh ishlarga yo‘l qo‘yganda qiynala boshlagan, o‘z xatolaridan afsuslanish hissi paydo bo‘lgan inson nafsining holati.Quroni Karimning "Qiyomat" surasi eslanadi.[3] Nafsi mutmaina – sokin muvozanatga erishgan,xotirjam gunohlardan tiyilgan nafs. Quroni Karimning "Al-fajr"surasida eslanadi.

Nafsni rad etib, undan qutulish, albatta,oson ish emas. Nafs ayrim manbalarda jon sifatida ta’riflanadi. Demak, nafsdan ayrilish, jondan judo bo‘lish demakdir. Ularning bir vositasi Zohidning azob uqubatga berilishi va og‘ir mashg‘ulotlar bilan band bo‘lishida edi. Zohid nafsni tahqirlash uchun qattiq azobga berilgan va u qancha azob cheksa, chidaydi. Faqat,nafs g‘alaba qilmasa bas, bo‘lmasa boshqalar uning zohidligiga ishonmagan bo‘lardi. Zero, zohid, albatta, nafsdan hazar qilishi va uni rad etishi kerak bo‘lgan. Aslida, inson vujudidagi nafs manbai inson badanini yemiradigan, qurtday o‘yadigan bir baloyi azimdir. Shu sabab undan qutulish va najot topish va inson uchun eng sharafli ish hisoblanadi. Shu inson halol, suvday pok bo‘ladi va Alloh visoliga erishadi.

Nafs-ku insonga azaldan berilgan narsa. Aniqrog’i, alloh bandasini sinash uchun unga nafs berib qo’ygan. Esingizda borki, odam ato bilan moma havo jannatdan aynan ana shu nafslarini yengolmaganlari uchun quvilishdi. Chunki ular jannat qonunini buzdi. Lekin bu yerda boshqa narsalar ham bor. Bu-shayton. Shayton tezgina nafs bilan oshna kirishib oladi. Nafs bilan shayton birikdimi, xudo urdi, deyavering, endi ruh bu ikkisini yengishi bag’oyat mushkul kechadi. Yana bir qiziq savol tug’iladiki: xo’sh, shayton kuchlimi yoxud nafsmi? Sufiylar o’rtasidagi suhbatlarda bu savol bot-bot ko’tariladi. Hakim Termiziy jumladan, shunday javob beradilar bu savolga: “Bir shaytonning bir soat ichida halok aylaganini yuz och arslon bir suruv

qo’y ichida halok aylay olmas. Nafsning bir soat ichida qilgan ishini ham yuz shayton qila olmas” demak shayton yuzta och arslondan ham daxshatli ekan. “Nafs esa yuzta shaytondan ham havfliroqdir[3]”. Bu gaplarning manosini yaxshilab chaqib olish kerak. Shayx Abu bakr Abu Barrok mana bunday hikmat aytadilar: “To’rt dushman bordir va ulardan qutilmoqning tort yo’li bordir: shayton, nafs, dunyo sevgisi, xalqqa aralashmoq. Shayton va nafsga muxolifat, (qarshilik) etmoq kerak, dunyodan cheklanmoq, xalqdan ham qochmoq kerak. Kishi bu to’rt yordamchi bilan qutulgaydir, yo’qsa xalok bulur”. Bu yerda bir izox berib o’tish kerakki, xalq, yani aksariyat odamlar o’z nafslarining qo’li bo’lganliklari uchun ham sufiylar o’zlarini xalqdan qochishga chog’lagan. Bu yerda xalqdan qochmoqni aynan nafs bandalaridan yiroq yurish deb tushinish kerak. “Farxod va Shirin”- Navoiyning boshqa dostonlari kabi, xali sirlari bo’lmay oshkor bo’lmay yotgan buyuk asar. Dostonda Farxodning Ahraman devini yengishi voqeasi bor. Bazilar buni shunchaki ertakchilik deb tushunishi xech gap emas. Xolbuki, tasavvufiy adabiyotda dev-nafs ramzi. Sufiylik yo’lini tutgan kishi, avvola, ishni nafsini yengishdan boshlanishi kerak. Farhod ham-sufiy timsoli. U Iskandar tilsimini ochish yo’lida devni mahv etadi. Shu yerda bir nozik masala o’rtaga tushadi. Nafs devini inson o’z-o’zicha yenga oladimi? Hamma gap shundaki, bu insonning o’z qo’lidan keladigan ish emas. Chunki nafs juda-juda shirin narsa. U jismning ichiga yaxshilab o’rnashib olgan. Uni o’z badaninggizdan quvib chiqarish yakka o’zingizning qo’lingizdan kelmaydi. Tasavvufda pir bo’lishi shart qilib qo’yilishiga asosiy sabab shu. Nafsni biz tushunganday faqat yeb-ichish, yotib–turish deb anglamaslik uchun asos yetarli bo’ldi. Kibr-havo, nafsoniyat ham-nafs. Uni ham yengmasa, insonni ko’p yomon yo’llarga yetaklayveradi. Tasavvuf haqida (va umuman, har qanday mavzu xususida) yozganda tarixiylik va matn masalalariga jiddiy e’tibor bermoq lozim. Masalan, X-XI asrlardako’chirilgan qo’lyozma bilan XX asr boshlarida nashr etilgan toshbosma kitobning ma‘lumotlari mutloqa teng qiymatga ega emas. Buyuk tasavvuf shayxlari yurtdoshlarimiz Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Abduholiq G’ijduvoniy shu davrda yashadilar. Tasavvuf she’riyatining eng sabardast vakllari Fariddin Attor, Jaloliddin Rumiy, Ibn al-Farid, va irfoniy tafakkurning eng buyuk namayondasi eng buyuk namoyandasi Ibn al-Arabiy ham shu muddatda ijod qildilar1 . Irfon yo’nalishi borliqni idrok etishning mutloqo o’ziga hos yo’li bo’lib, sunnadan ham mantiqiy, tafakkurdan ham tamomila farq qiladi. Bu haqda ibratli rivoyat bor. Malumki, alov kuydiradi. Buni bizga muallim tushuntiradi va biz uning gapiga ishonib, “alov kuydiradi” deymiz. Bu sunna bosqichi. Ikkinchi bosqichda biz tajriba o’tkazamiz, qog’ozni sham alovi tepasida tutsak, qog’oz yona boshlaydi va biz “olov kuydiradi”, deb xulosa qilamiz. Bu ilm deyiladi. Islom ma’rifatchiligi davri namoyondalari shu yo’nalishda ish olib borganlar.

Yuqorida aytganimizdek, inson botinida «nafs» degan ma'naviy borliq mavjud bo’lib, u insonning o’z menligidir. “Tarbiya ko’rmagan, past saviyadagi nafs yomonlikka moyil va shaxvatga ko’p rag’batlidir: yemoq, ichmoq, uxlamoq, ayshu ishrat qilmoq, kayfu safoga berilmoq, boshqalar tomonidan maqtalmoq, zo’ravonlik qilmoq va xokazolarni istaydi[4]” Jiddiy ish vazifalardan o’zini olib qochadigan, biron qonun-qoidani tan olmaydigan nafs egasini asir qilib, o’z orzu-istaklari ketidan sudraydi. Nafs mazkur illatlarga egaligicha qolsa, ko’chaysa, uni islox etish, yo’lga solish qiyin bo’ladi va dushmandan kutilmagan zararlar nafsdan kelaveradi. Insonni turli- tuman moddiy va ma'naviy hatarlarga giriftor qiladi. Masalan, aroqxo’r, qimorboz, bexayo qilib qo’yadi, kezi kelganda o‘g’rilik qildiradi, xatto odam uldirishga majbur qiladi, oila-ro’zg’orlarni buzdiradi, boshqalarga zulm qildiradi, qamoqqa tiqadi va oxiri mozorga yetaklab keladi. Nafsni yoshlikdanok tarbiyalash kerak. Chunonchi, yosh bolaga har istagan narsasini olib bermaslik, uni ayrim maxrumiyatlarga kuniktirish kerak. Bir oz yoshi ulg’aygach, siqilsa, qiynalsa ham oz-oz qiyin ishlarga o’rgatish lozim. Balog’at yoshiga yetgach, asta-sekin namozu ro’zalarga kuniktirmoq zarur. Erta to’rishni, erkalik qilmaslikni o’rgatish darkor. Aks xolda, kungli tusagani muxayayo etilaversa, bolaning nafsini tarbiyalash amrimaxol bo’lib qoladi.

[3] Xislatli hikmatlar sharhi 2-kitob.Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf.”Hilol nashr”.Toshkent 2019.
[4] Qur’oni Karim. Manbalar tarjimasi. Tarj. Alouddin Mansur.-T.:2004.-145.B

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

Aytganini qilmasangiz, nashavand singari tutqanog'i tutadi, o'zini u yoqdan bu yoqqa o'radi, so'zingizga quloq solmaydi. Nafsning g'alati bir xususiyati bor. Istagi qondirilganda taskin topish o'rniga ishtaxasi yanada ochilib, orzulari kuchayib boraveradi. Yegani sayin ochko'zligi, uxlagani sayin dankasaligi ortib, ish qilmay qo'yadi, pul topsa xirsi ham oshadi, ko'zini tuproq tuldirgunga qadar tuymaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alisher Navoiy Maxbub ul-qulib. –T.: 1939. – B.107.

2. Abay. Tanlangan asarlar. -T.: 1961. 34-57. B.

3. Abulqosim Firdavsiy. Shoxnoma. Birinchi kitob.-T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1975. –B.56.

4. Abulqosim Firdavsiy. Shoxnoma uchinchi kitob.-T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1976. –B.125.

5. Abu Ali Ibin Sino. Hikmatlar. –T.: "O'zbekiston"1980. –B.43-168.

6. Aliqulov. X. Omonova G. Jomiy va Dovoniy ta'lim-tarbiya haqida.-T.: "o'qituvchi" nashriyoti, 1981. -207.B.

7. AbuRayxonBeruniy"Ruhiyatva tarbiyahaqida".-T:1992.-345.B

8. Behbudiy.M Tanlangan asarlar.- T.:"Fan" nashriyoti, 1958. – B.124.

9. Fozilov J.va boshqalar «O`quvchima'naviyatinishakllantirish»-T.: 2000.246.-B 10. Mahmud Qashg'ariy. Devoni lug'ati turk.–T.: "Fan" nashriyoti, 1982. –

11. Qur'oni Karim. Manbalar tarjimasi. Tarj. Alouddin Mansur.-T.:2004.-145.B

12. Hadis va hayot –T.: Sharq. 2000-2005.–B.24-176.

WORDLY
KNOWLEDGE